

XORAZMSHOH JALOLIDDIN MANGUBERDINING MUVAFFAQIYATLI JANGLARI

Qilichev Shohruh Sherali o‘g‘li, ChDPU Tarix fakulteti talabasi
SUCCESSFUL BATTLES OF KHOREZMSHAH

JALALIDDIN MANGUBERDI

Kilichev Shohruh, Student of History at ChDPU

УСПЕШНЫЕ БОИ ХОРЕЗМШАХА ДЖАЛАЛИДДИНА МАНГУБЕРДИ

Киличев Шохрух, студент исторического факультета ЧГПУ

Annotatsiya: Ushbu maqolada oxirgi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining Chingizxonga, Ozarbayjonga, Bog‘dodga, Gurjistonga, Iroqqa, Hindistonda mo‘g‘ullarga va mahalliy dushmanlariga qarshi muvaffaqiyatli janglari va janglardagi taktikalari, jang natijalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xorazmshoh, Chingizxon, Bog‘dod, G‘iyosiddin, Rukniddin Uzlog‘shoh, Qayqur, Muzaffariddin, Qush Temur, Nosir Billox, Ig‘an Toisiy, Ozarbayjon.

Abstract: This article will talk about the tactics of the last Khwarezmshah Jaloliddin Manguberdi in his temporary battles and battles against Genghis Khan, Azerbaijan, Baghdad, Georgia , Iraq, the Mongols in India and local enemies, the results of the battle.

Keywords: Khorezmshah, Genghis Khan, Baghdad, Ghiyosiddin, Rukniddin Uzlughshah, Qayqur, Muzaffariddin, Qush Temur, Nazareth Billock, Ighan Toisiy, Azerbaijan.

Аннотация: В этой статье рассказывается о временных сражениях и тактике последнего Хорезмишаха Джалалиддина Мангуберди против Чингисхана, Азербайджана, Багдада, Грузии , Ирака, монголов и их местных врагов в Индии, а также о результатах битвы.

Ключевые слова: Хорезмишах, Чингисхан, Багдад, Гиясиддин, Рукниддин Узлаг-Шах, Кайкур, Музффариддин, куши Тимур, Насир Биллок, Иган Тойси, Азербайджан.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ

(INTRODUCTION) Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori Muhammad Xorazmshohning to‘ng‘ich o‘g‘li, Jaloliddin Manguberdi 1198-yilda tug‘ilgan. To‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Onasi – Oychechak bo‘lgan. Jaloliddin o‘n uch yoshidan boshlab otasi bilan harbiy safarlarga chiqsa boshladi. Lekin mo‘g‘ullar bilan jang qilganida u o‘n yetti yoshda edi. 1220-yil dekabr oyida Xorazmshoh mo‘g‘ullardan Gurgon daryosining dengizga quylilish joyiga yetib keldi va Kaspiy dengizidagi Ashur ada orolidagi qalaga berkindi. Qal’ada u o‘g‘illari Jaloliddin, O‘zloqshoh, Oqshoh va mulozimlari, navkarlarini huzuriga chaqirib bunday dedi: “Hokimyat iplari uzildi, saltanat asoslari bo‘shashdi va buzildi. Dushmanning

maqsadi ayon. Endi men uchun faqat o‘g‘lim Jaloliddingina qasos olishi mumkin. Men uni taxtga valiahd etib tayinlayman”[1].

ADABIYOTLAR / TAHLILI VA METODOLOGIYA / METODOLOGIYA / MATERIALS AND METHODS). Ushbu mavzu yuzasidan bugunga kelib bir qancha manba va adabiyotlar ma‘lum. Jumladan, Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” asari, Rashiduddin Fazlullohning “Jome at-tavorix” asari, Shibobiddin Nasaviyning “Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni” kabi manbalar va Z.Buniyodovning “Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagan Xorazmshohlar davlati”, Hamdam Sodiqovning “Jaloliddin Sulton Manguberdi”, Bekzod Abdirimovning “Ikki buyuk



<https://orcid.org/0009-0007-6610-0599>

e-mail:
shohruhqilichev70@gmail.com

sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha” asarlari shular jumlasidandir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xorazmshoh sulton Jaloliddin yurtini vayron qilgan va xalqini qonga botirgan Chingizzondan shafqatsiz o‘ch olishga ahd-u paymon qildi. Halok bo‘lgan ukalari Rukniddin Uzlog‘shoh, Oqshoh xunini olishni ham ko‘ngliga tugdi. Omon qolgan ukasi G‘iyosiddin bilan birga vatanparvar yigitlardan qo‘sish tuzishga kirishdi. Ammo mo‘g‘ullar bunga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishardi. Niso shahri yaqinida Jaloliddinning 300 kishilik lashkarini, 700 mo‘g‘ul qurshab oldi. Jang keskin va dahshatl bo‘ldi. Xorazmshohning jang ko‘rgan va chiniqqan yigitlari mo‘g‘ullarni tor-mor qilishdi. Ushbu birinchi g‘alabadan so‘ng, Jaloliddingga uning amakisi Amin al-Mulk 10 minglik askari bilan kelib qo‘sildi. Ular mo‘g‘ullar qamal qilgan Qandahorga kelishdi va 3 kun ayovsiz jang qilishdi. Mo‘g‘ullar sharmandali ravishda mag‘lub bo‘lib qochdilar. Qandahordagi olishuv dushman ko‘zini ochdi: mo‘g‘ullar shu paytgacha qayerga chang solmasinlar, g‘olib bo‘lardilar. Ularga qarshi turadigan kuch yo‘q edi. Mo‘g‘ullar nazarida, Xorazmshoh lashkari faqat ohuday qochishni biladigan, hujum qila olmaydigan, qo‘rroq odamlar edi. Ular bizlarga qarshilik qilaolmaydi, deb o‘ylashardi. Lekin Qandahordagi jangda ular bo‘g‘izlariga sanchilishga va yuraklarini yorishga tayyor turgan xorazmliklarning o‘tkir nayzalarini ko‘rdilar. Shu jangdan so‘ng Chingizzon Jaloliddin bilan hisoblashishga majbur bo‘ldi[2].

Sulton Jaloliddin G‘aznaga yetib kelganda Xorazmshohning tarqalib ketgan qo‘sinchilari uning atrofida to‘planadilar. Jaloliddin bu kuchlar bilan G‘aznaga yaqin bo‘lgan Volion qal‘asi atrofida Chingizzonning Bekchak va Timqur boshliq qo‘sinchini yakson qiladi. Dushman to‘qqiz ming jangchisidan judo bo‘lib, juda ko‘p o‘lja, boyliklarni tashlab qochadi. Chingizzon bu shum xabarni Tolqonda turganda eshitadi va Jaloliddinni tezda daf qilish uchun eng ishonarli va dongdor lashkarboshisi Qayqur no‘yon boshchiligidida 30 ming kishilik qo‘sinni yuboradi. Ikki o‘rtada jang 1221-yilning yozida Parvona dashtida bo‘ladi. Jaloliddin janglar tarixida birinchi marta mo‘g‘ullarga qarshi kurashda yangi taktik usulni qo‘llaydi: jangchilarga otdan tushib, jilovlarini bellariga bog‘lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Dushman tilka-pora qilinadi. Qayqur no‘yon ozgina odam bilan

Chingizzon huzuriga kirib boradi. Bu xabarni eshitgan Chingizzon dahshatga tushadi. U shu zahotiyoy o‘zining barcha kuchlarini jamlab, sulton Jaloliddinni daf qilish maqsadida shaxsan o‘zi otlandi. 1221-yil 9-dekabrda Jaloliddinning yarim oy shaklida joylashtirilgan hamda qanotlari bilan Sind daryosiga tiralgan oz sonli qo‘sishini o‘rab oladi. Sulton Jaloliddin vaziyatning g‘oyat og‘ir va mushkulligini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo‘liga tushirilgan o‘g‘li Jamoliddinning yuragini tiriklayin sug‘urib olgan edilar. O‘zi esa qora to‘riq otiga minib, so‘nggi bora mo‘g‘ullarga hamla qilib, so‘ng oti jilovini orqaga tortadi; Sovutini yelkadan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o‘zini Sind daryosiga otadi. (Daryo qirg‘og‘idan to o‘zan (suv)gacha o‘n gazdan ortiqroq edi). Jaloliddin daryoning narigi sohiliga o‘tib oladi va ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi[3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sulton o‘sha ikki tahlika orasidan, ya’ni Chingizzonning g‘azab olovidan hamda Sind daryosining girdobidan qutulgach, falakning suvg‘i cho‘ktira olmagani, balo-qazo shamoliningsovug‘i halokat tuprog‘iga bora olmagani besh-olti kishi bilan o‘rmondan panoh topdi va bir-ikki kun o‘sha yerda kutdi. Ularga yana ellikta askar kelib qo‘sildi. Bu orada Sultonning dushmani o‘rganish uchun oldindan yuborgan askarlari hind qaroqchilaridan tashkil topgan piyoda va otliq guruhning bir farsah masofa yaqinligida joylashgani xabarini yetkazdi. Sultonning buyrug‘iga ko‘ra, askarlari o‘zlariga yo‘g‘on tayoq tayyorlaganlaridan so‘ngra hindlarga tunda hujum qildilar. Ularning ko‘pchilagini yo‘q qilib, qurollarini o‘lja qilib qo‘lga kiritdilar. Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdani ba’zilari ot, ba’zilari esa buqa, ho‘kizlarga mingan holda guruhma-guruh kelib, yana Sultonning yonidan joylarini egalladilar. Yangi kelganlar ikki-uch ming kishilik hind askarlaridan tashkil topgan bir harbiy qismni yaqin atrofda ekanligi haqida xabar bergach, Sulton yuz yigirma askari bilan ularning ustiga hujum qildi. Ularning ko‘pchilagini qilichdan o‘tkazdi. Ulardan olgan o‘lja bilan o‘z kuchini yanada orttirdi.

Mo‘minlar amiri Nosir Billohning o‘ziga yordam qilajagi va uning dushmaniga qarshi bir to‘siq vazifasini o‘tashini umid qilayotgan edi. Lekin Xalifa Jaloliddingga qarshi 10000 kishidan iborat

qo'shin yuborib unga qarshi chiqdi. Jangda Jaloliddin g'olib chiqib xalifa askarlarini tor-mor etdi[4].

Ig'an Toisiy Jaloliddin xizmatiga kirkach, Iroq har xil janjal, nizolarni keltirib chiqaruvchilardan, uni adolat bilan boshqara olmaydigan kaltafahm, aqlsiz hukmdorlardan xalos bo'ldi. Shundan keyin Sulton Ozarboyjonga qarab yurdi. U Ozarboyjon chegaralariga yaqinlashganda Sharafmulk Marog'a aholisidan maktub oldi. Maktubda marog'aliklar Sultondan o'z shahriga kelishlarini iltimos qilib, bu yerda davlatni o'zboshimchalik bilan boshqarayotganlar va xotinlar hukmronligi natijasida yuzaga kelgan sharmandali ahvoldan xalos etishlarini so'ragandi. Ular, shu bilan birga, mamlakatining hukmdori Otabekning kuchsizligi tufayli o'z mulklarining daxlsizligini saqlay olmasligiga, himoya qilolmasligiga, gurjilarning esa o'tkir tirnoqlarini o'zlariga [Marog'aga] qattiq botirganlariga ham ko'nikib qolgandilar. Shunda Sulton tezlik bilan o'sha tomonga yurdi va uni hech bir qarshiliksiz qo'lga kiritdi. Sulton shaharga tomon yurar ekan, amirlarga qamal qurollari: manjaniqlar, og'ir to'qmoqlar, yuruvchi qal'alar tayyorlashni buyurdi. Ular shahar atrofidagi daraxtlarni kesa boshladilar. Daraxtlar esa nihoyatda ko'p edi. Sulton Tabrizni qamal qilganining yettinchi kuni To'g'rulning qizi shahardan elchi chiqardi. Elchi Sultonga malika o'zi, odamlari, mol-mulki uchun omonlik so'raganini, Xoy shahri o'ziga berilishi sharti bilan bu yerni Sulton lashkarlari himoyasida tark etajagini bildirdi". Sulton uning talabini qondirdi. Tabriz olti yuz yigirma ikkinchi yil rajab oyining o'n yettinchisida [1225-yil 25-iyulda] bosib olindi[5].

1230-yil avgustda Ko'niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari Arzinjon yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta

qo'shin bilan 1231-yilda Ozarbayjonga bostirib kirib, Jaloliddin Manguberdini ta'qib etishadi. Mo'g'ullar uning qarorgohiga uyshtirilgan tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo'shinini tor- mor keltiradilar. Jaloliddin Manguberdining o'zi esa ta'qibdan qutulib Kurdistan tog'lariga chiqib ketadi. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'liga asir tushib, fojiali halok bo'lgan[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Murakkab va ziddiyatli davr farzandi bo'lgan Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori sifatida, vatanini mo'g'ullar bosqinidan himoya qilishda ulkan jasorat va sadoqat ko'rsatgan tarixiy shaxsdir. Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida Sharq xalqlari tillarida doston bo'lib ketdi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. A.Zamonov S. Abdusodiqov O'zbekiston tarixi II qism IX – XIV asr o'rtalari. Darslik. T.: Bayoz, 2024.B. 449.
2. Hamdam Sodiqov. Jaloliddin Sulton Manguberdi. Toshkent, 2009-yil. B.23.
3. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. O'zbekiston tarixi, I kitob. Toshkent, 2010-yil. B. 317-318.
4. Alouddin Atomalik Juvayniy. , Tarixi jahonkusho. Toshkent, 2015-yil. B.375-383.
5. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi darslik. Toshkent, 2017-yil. B. 77.
6. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: Mumtoz so'z, 2012. B. 320.

